

## PESTISIDLARNING TUPROQ BIORESURSLARIGA ZARARLI TA'SIRI

Xaydarova Zubaydaxon Esonboyevna  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz  
filiali Tibbiy va biologik kimyo" kafedrasi assisenti  
Eshkarayev Sadreddin Choriyevich  
-Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tibbiyot va Tabiiy fanlar kafedrasi mudiri, k.f.PhD

**Annotatsiya.** Maqolada Surxondaryo viloyati tuproqlarda nisbatan ko'p aniqlangan 2 hil pestisidlarning tarqalishi, inson organizmiga yetib borishi va uning zararli oqibatlari, ko'chish yo'llari, bug'lanish tezligi va tuproqlarning sorbsion qobiliyatları o'r ganilgan. Xususan, bug'lanish tezligi tuproq tarkibiga bog'liqligi o'r ganildi.

**Kalit so'zlar;** DDT, GXSG, Bug'lanish tezligi, qumli tuproq, bo'z tuproq, oq tuproq, qumli tuproq.


**Аннотация:** В статье изучено распространение 2 видов пестицидов, которые сравнительно часто встречаются в почвах Сурхандарьинской области, попадая в организм человека и его вредные последствия, пути миграции, скорость испарения и сорбционная способность почв. В частности, изучалась зависимость скорости испарения от состава почвы.

**Ключевые слова:** ДДТ, GXSG, Скорость испарения, песчаная почва, серая почва, белая почва, песчаная почва

**Abstract.** In the article, 2 types of pesticides, which are relatively common in the soils of Surkhandarya region, get into the human body and their harmful consequences, migration routes, evaporation rate and soil sorption capacity were studied. In particular, the dependence of the evaporation rate on the soil composition was studied.


**Key words;** DDT, GXSG, Evaporation rate, sandy soil, gray soil, white soil, sandy soil.

**Kirish.** Surxondaryo viloyati tuproqlarida asosan 2 turdag'i pestisidlardan boshqa pestisidlarga nisbatan ko'p miqdorda aniqlangan. Bularidan birinchisi - dixlorodifeniltixloretan (qisqacha DDT) bo'lib, xalq tilida DUS yoki Bit dori deb ataladi. Uning brutto formulasasi  $C_{14}H_9Cl_5$  bo'lsa, tuzilish formulasasi quyidagicha:



IUPAC nomenklaturasi bo'yicha nomi 1,1'-(2,2,2-trikloroethan-1,1-di) bis (4-xlorobenzen) bo'lib, chivinlarga, paxta, soya, yeryong'oq zararkunandalariga qarshi ishlataladigan insektitsid. Chigurtkalarga qarshi juda samarali vositalardan biri bo'lgan xlorbenzolning hisoblanadi. O'tgan asrning 90 yillarda hayvonlar, odamlar tanasida to'planishi mumkinligi va inson organizmining ovqat hazm qilish tizimida og'ir kassaliklarni keltirib chiqaruvchi ta'siri sababli ko'plab mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda foydalanish taqiqlangan.

Ikkinchi pestisid esa, geksaxlorsiklogeksan (qisqacha GXSG)  $C_6H_5Cl_5$ , tuzilish formulasasi quyidagicha:



Bu pestisid ham asosan qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashishda qo'llanilgan va XX asrning 90-yillarda zaharliligi sababli qo'llanishi ta'qilangan. Boshqa pestisidlarning miqdori viloyat tuproqlarida topilmagan yoki ularning miqdori juda kam bo'lgan. XX asrning so'nggi dekadasida bu pestisidlarni qo'llash ta'qilangan bo'lsa-da, ishlatalmay qolgan taxminan umumiy hisobda 3400 tonna DDT va 1600 tonna GXSG zararsizlantirilmagan va bugungi kungacha sobiq aerodromlar hududi

tuproqlari bilan aralashib ketgan va shu kungacha yer osti suvlari, atmosfera yog'lnlari, shamol va antropogen ta'sirlar tufayli sug'oriladigan yerlami zararlab kelmoqda. Ba'zi hududlarda ulaming ko'chishi 15-20 km gacha yetib borgan.

Olib borilgan dala tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, geksaxlorsiklogeksan sepilganda pestisidlarning 50-60% o'simliklar barglariga, 25-45% esa tuproqqa tushadi, 7% dan 14% gachasi esa dala hududidan shamol ta'sirida uchib chiqib ketishini kuzatdik. Havoda bo'lgan holda, pestisidlardan juda sekin parchalanadi, shuning uchun atmosferadan tuproq va suv havzalariga o'tib, ular turli xil organizmlarda to'planadi, u yerdan esa oziq-ovqat zanjirlari orqali odamlarga yetib boradi.

Yuqori bug' bosimiga ega bo'lgan geksaxlorotsiklogeksan tuproq yuzasidan nisbatan oson bug'lanadi. Yiliga 2,38 kg geksaxlorotsiklogeksan va 0,014 kg dixlorodifeniltixloroetan 30°C haroratda bug'lanishi mumkinligi hisobiab chiqilgan. Yuqori qaynash nuqtasiga qaramay, turli tuproq maydonlarida dixlorodifeniltixloroetanning tarkibi juda katta farq qilishi mumkin va miqdori 0,3 dan 8500 mg / m<sup>3</sup> gacha yetishi mumkin. Bug'lanish tezligiga tuproqning tarkibi, g'ovakligi va tuproq yuzasidagi havo harakati ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. 1-jadvalda turli tuproq namunalaridan DDT va GXSG pestisidlarning bug'lanish tezligi keltirilgan:

1-jadval

**Surxondaryo viloyati tuproqlarida pestisidlardan bug'lanish tezligining tuproq tarkibiga bog'liqligi**  
(t<sup>0</sup>C=32<sup>0</sup>C, nisbiy namlik 45%, shamol tezligi 12m/s)

T/r	Tuproq namunalarini	Tuproq tarkibidagi minerallar miqdori, mg/kg					Bug'lanish tezligi, mg/m <sup>3</sup>
		Fosfor (V) oksid, P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	Azot oksidlari, umumiy NO <sub>x</sub>	Kaliy oksidi, K <sub>2</sub> O	gumus	suv	
1	Qumli tuproq (Angor tumani)	12,5	6,7	40,4	24,5	120	203
2	Bo'z tuproq (Denov tumani)	45,0	11,4	170,4	56,0	93	151
3	Bo'z tuproq (Boysun tumani)	32,8	8,5	30,0	28,8	75	124
4	Qumli tuproq (Muzrabot tumani)	14,6	4,3	220,5	12,4	64	236
5	Sho'r tuproq (Termiz tumani)	13,5	9,5	335,2	8,6	45	73
6	Oq tuproq (Oltinsoy tumani)	24,7	8,8	124,8	9,2	82	54

1-jadvaldan ko'rinish turibdiki, qumli tuproqlarda tuproqning sorbsion qobiliyatasi past bo'lishi tufayli pestisidlarning tuproq yuzasidan bug'lanishi yuqori bo'larkan. E'tiborli jihat shundaki, tuproq tarkibida mineral moddalar miqdori kam bo'lsa, pestisidlarning sorbsiyalanishi yuqori bo'ladi.

Tuproqning sorbsion qobiliyatasi qanchalik yuqori bo'lsa, undan pestisidlarning bug'lanishi shunchalik sekin bo'ladi.

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, mineral o'g'itlarga boy bo'laman tuproqlarda tuproq namligi 60% dan yuqori bo'lganda pestisidlardan 30°C dan yuqori haroratda 14 kun ichida deyarli 90% gacha bug'lanishi tasdiqlandi. 3-jadvalda 14 kun ichida tuproqdan topilgan DDT va GXSG pestisidlarning miqdori keltirilgan.

3-jadval

**Tuproq tarkibidagi pestisidlarning miqdori**

No	Pestisidlardan	Tuproq	Pestisidlardan topilgan	Topilgan	Sorbsiya
----	----------------	--------	-------------------------	----------	----------

		turlari	tuproq chuqurligi, m	pestisidning miqdori, mg/kg	darajasi, %
1	DDT	Qumli tuproq	1,1	20,0	95%
		Bo'ztuproq	0,35	11,6	75%
		Oq tuproq	0,57	18,5	87%
2	GXSG	Qumli tuproq	1,0	14,6	93%
		Bo'ztuproq	0,30	9,4	72%
		Oq tuproq	0,42	6,7	91%

Xulosa. Qumli tuproqda 14 kunlik muddat uchun pestitsid DDT ning sorbsiya darajasi yuqoriligi bois (95%), faqat 1,1 m chuqurlikgacha sorbsiyalanadi va uning miqdori 20,0 mg/kg ga teng bo'lди. 12 oy davomida qo'llanilgan DDTning taxminan 92% i 1 metr chuqurlikdagi tuproq qatlamida topilgan. Tuproqning 30 sm gacha chuqurligida DDT pestisidi topilmagan, pestisidning taxminan 16% i havoga uchib ketgan bo'lsa, qolgan qismi 1,0 chuqurlikdagi ichki qismlarga ko'chib o'tgan. Qumli va bo'z tuproqlarda 1 metr chuqurlikdan pastda DDT miqdori 3% gacha va oq tuproqlarda undan ham kam bo'lgan. Juda og'ir sharoitlarda, harorat 50°C dan ortganda pestisidlarning tuproq yuzasidan bug'lanishi 95-100 % gacha tasdiqlandi. Bu sharoitda bug'lanish hattoki gumusga boy bo'lgan tuproqlardagi GXSG pestisida ham taxminan 80 % ga teng bo'larkan. Jumladan, 2023 yil 28-30 iyun kunlari Muzrabet va Termiz tumanlarining qumli tuproqlaridagi olib borilgan tadqiqotlar tuproqning 50 sm chuqurligidagi DDT va GXSG pestisidlari keskin kamayganligi tasdiqlangan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Бушуев А.В., Кожин А.Ф., Ли Джундун и др. Определение выгорания ТВС исследовательского реактора методом их повторного кратковременного облучения и последующего у-спектрометрического измерения // М. Атомная энергия. - 2004. - вып. 2. Т. 97. - С. 139-145.
- Eshkaraev S.CH., Turaev X.X., Umbarov I.A., Babamuratov B.E. Radiometricheskoe opredelenie stronsiya-90 s pomoshyu beta-izlucheniy v pochvakh Surxandarinskoy oblasti Respubliki Uzbekistan // Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya: Voprosy obrazovaniya i nauki. Rossiya, Tambov, iyun 2020 g.), -s. 120-125.
- Бушуев А.В., Кожин А.Ф., Ли Джундун и др. Определение выгорания ТВС исследовательского реактора методом их повторного кратковременного облучения и последующего у-спектрометрического измерения // М. Атомная энергия. - 2004. - вып. 2. Т. 97. - С. 139-145.
- Engelbrecht R., Shwaiger M. State of the art of standard methods used for environmental radioactivity monitoring // Applied Radiation and Isotopes 66. – 2008. - pp. 1604-1606.
- Диссертация на соискание ученой степени доктора философии и химии С.Ч.Эшкараева. Самарканд. 2020. 110-с.